



Pulatjon OMANOV,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, PhD
E-mail: pulatomanov@gmail.com

PhD Sh.Akbarova taqrizi asosida

JAMIYATDA IKKI TILLILIK VA KO'P TILLILIK: KICHIK YOSHDA SHAKLLANTIRISH, PSIXOLINGVISTIKA VA SOSIOLINGVISTIKA NUQTAI NAZARIDAN TAHLIL

Аннотация

Ushbu maqola jamiyatdagi ikki tillilik va ko'p tillilik fenomenlariga oid mavzuni tahlil qiladi. Ayniqsa, kichik yoshdan boshlab ikki tillilikni shakllantirish va rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada bilingvizm va plurilingvizmning psixolingvistik, sosiolingvistik va pedagogik jihatlari o'rganiladi, shuningdek, bu fenomenlarning miya faoliyatiga ta'siri muhokama qilinadi. Bundan tashqari, ko'p tillilikning jamiyatdagi ahamiyati, uning talabalardagi kognitiv va lingvistik rivojlanishi, shuningdek, turli tillarning faol ishlashi jarayoni ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Globallashuv, ikki tillilik, ko'p tillilik, bilingvizm, plurilingvizm, psixolingvistika, sosiolingvistika, tillar va miya faoliyati, tillarni o'rganish, kognitiv rivojlanish, lingvistik rivojlanish, madaniyatlararo aloqa, kichik yoshda tillarni shakllantirish, zullisonaynlik qobiliyati, kognitiv rivojlanish, oilaviy ikki tillilik.

ДВУЯЗЫЧНЫЕ И МНОГОЯЗЫЧНЫЕ В ОБЩЕСТВЕ: ФОРМИРОВАНИЕ С РАННЕГО ВОЗРАСТА, ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ И СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ ПОДХОДЫ

Аннотация

Данная статья анализирует феномены двуязычия и многоязычия в обществе. Особое внимание уделяется вопросам формирования и развития двуязычия с раннего возраста. В статье рассматриваются психолингвистические, социолингвистические и педагогические аспекты билингвизма и плурилингвизма, а также обсуждается влияние этих феноменов на деятельность мозга. Кроме того, исследуется значение многоязычия для общества, его влияние на когнитивное и лингвистическое развитие учащихся, а также процесс активного использования различных языков.

Ключевые слова: Глобализация, билингвизм, мультилингвизм, билингвизм, плурилингвизм, психолингвистика, социолингвистика, языки и мозговая деятельность, изучение языков, когнитивное развитие, лингвистическое развитие, межкультурная коммуникация, формирование языков с раннего возраста, способность к билингвизму, когнитивное развитие, семейный билингвизм.

BILINGUALISM AND MULTILINGUALISM IN SOCIETY: FORMATION FROM EARLY CHILDHOOD, PSYCHOLINGUISTIC AND SOCIOLINGUISTIC PERSPECTIVES

Annotation

This article analyzes the phenomena of bilingualism and multilingualism in society. Particular attention is paid to the formation and development of bilingualism from an early age. The article examines the psycholinguistic, sociolinguistic, and pedagogical aspects of bilingualism and multilingualism, and discusses their impact on brain function. Furthermore, it explores the societal importance of multilingualism, its influence on cognitive and linguistic development in students, and the process of active use of multiple languages.

Key words: Globalization, bilingualism, multilingualism, bilingualism, plurilingualism, psycholinguistics, sociolinguistics, languages and brain activity, language learning, cognitive development, linguistic development, intercultural communication, language formation in early childhood, bilingual ability, cognitive development, family bilingualism.

Kirish. Jamiyatda ikki tillilik, ikki tillilikni erta yoshdan shakllantirish va rivojlantirish muammolari, shaxsda bir nechta tillarning ishlashi jarayoni qanday kechishi, ko'p tillikning miya faoliyatiga ta'siri masalalari hali to'liq o'rganilmaganligi nafaqat tilshunoslik, balki pedagogika, psixologiya, sosiologiya, tillarni o'qitish sohasidagi tadqiqotchilarning ham e'tiborini tortib kelmoqda. Xususan, kichik yoshdagi bolalar ikki tilliligining muammolari nafaqat bilingvializm doirasida, balki sosiolingvistik, psixolingvistik, neyrolingvistik va chet tillarini o'qitish metodikasida ham o'ta muhim va dolzarb bo'lib, bu ikki tillilik - bilingvizm, ko'p tillilik - plurilingvializm hodisalarining tobora kengayib, tarmoq otib borayotgani va jamiyatda tobora muhim ahamiyat kasb etib borayotgani, bu masalalar bo'yicha tadqiqot ishlarini keng miqyosda olib borish zaurati yuzaga kelganini ko'rsatadi.

Ikki tillilik tarixan ancha qadimiy bo'lib, uning ildizlari ota-bobolarimizga borib taqaladi. Jumladan, bizning ko'hna yurtimiz sanalmish Movarounnahrda qadimdan o'zbek-fors, o'zbek-arab, o'zbek-qozoq, o'zbek- qirg'iz, o'zbek-turkman, o'zbek-uyg'ur, o'zbek-tatar ikki tilligi keng tarqalgan bo'lib, keyinchalik bular qatorida o'zbek-rus bilingvizmi ham qo'shildi. Mintaqamizda ikki tillilik zullisonaynlik deb atalib, Al Forobiy, Al Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Az

Zamaxshariy, Mahmud Koshg'ariy kabi buyuk allomalarimiz o'z ona tillaridan tashqari arab, fors tillarini mukammal bilishgan. Buyuk mutafakkirimiz Alisher Navoiy va boshqa shoirlarimiz nafaqat turkiy tilda, balki fors-tojik tilida ham ijod qilgan. Sohibqiron Amir Temur va Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida davlat muassasalarida ish yuritish bir necha tilda olib borilgan. X asrda Xorazmda tashkil etilgan Ma'mun akademiyasida, XV asrda Samarqanddagi Ulug'bek madrasasida ta'lim arab va fors tillarida olib borilgan. Ajdodlarimizdagi zullisonaynlik qobiliyati va bir nechta tillarni mukammal bilishga intilish ularga shu tillarda yaratilgan asarlarni o'qib-o'rganishlari uchun katta imkoniyat bergan.

Zullisonaynlik, ya'ni ikki tillilik an'anasi mintaqamizda hozirgi kunga qadar davom etib keladi va bugungi kunda respublikamizda nafaqat qardosh tillar, ya'ni o'zbek va boshqa turkiy tillar o'rtasida, balki turli tuzilishli noqardosh tillar, jumladan, o'zbek-tojik, o'zbek-rus tillari bilingvizmi ham keng tarqalgan. Mamlakatimizda yashovchi 130 dan ortiq millatlarning ko'pchiligi turkiy tillarda va rus tilida so'zlashuvchilar bo'lgani bois respublikamizda umumiy o'rta ta'lim bosqichida ta'lim 7 tilda: o'zbek, rus, qoraqalpog, qozoq, turkman, tojik va qirg'iz tillarida, o'rta maxsus va oliy ta'lim bosqichida ta'lim 2 tilda: o'zbek va rus tillarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa

ta'lim qoraqalpoq, o'zbek va rus tillarida olib borilishi yo'lga qo'yilgan. Respublikamizda yashovchi barcha millatlar o'zbek va rus tillarida erkin so'zlashadilar, turkiy tilli millatlar o'rtasida o'zbek-qozoq, o'zbek-qoraqalpoq, o'zbek-qirg'iz, o'zbek-turkman, o'zbek-uyg'ur, o'zbek-tatar, o'zbek-ozarbayjon bilingvizmi, Samarqand, Buxoro shaharlari va bir qator viloyatlarda esa o'zbek-tojik bilingvizmi keng tarqalgan. Keyingi yillarda uzoq xorijiy tillar, xususan, ingliz, xitoy, koreys, arab kabi tillarni o'rganishga intilish kuchayib bormoqda va yoshlar o'rtasida o'zbek-ingliz, o'zbek-xitoy, o'zbek-koreys, o'zbek-arab bilingvalligi ham tarqalib bormoqda.

Til kontaktlari va bilingvizm masalalari tilshunoslikning psixolingvistika, sosiolingvistika sohalariga ham aloqador bo'lib, ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarda chet tillarini kichik yoshdan boshlab o'rganish samarali kechishi ta'kidlanadi. O'zaro axborot almashish, ma'lumot, bilim olishda tilning nafaqat filolog, tilshunoslar, balki barcha kasb egalari orasida asosiy vosita bo'lib xizmat qilishi bugungi kunda xorijiy tillarni kichik yoshdan boshlab o'rgatish, yoshlarni ko'p tillilik muhitida turli tillarda erkin muloqot yuritish olish faoliyatiga tayyorlab borishni davr ehtiyojiga aylantirdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ko'p tillilik bilingviallikka nisbatan yosh jarayon bo'lib, bu sohaning faollashishi jahondagi globallashuv jarayoni bilan bog'liq. Bu o'rinda shuni qayd etish kerakki, ikki tillilik, odatda, kichik yoshdan ko'proq tabiiy muhitda yoki o'qish/o'rganish orqali rivojlanadi, ko'p tillilik esa katta yoshlilar orasida ko'pincha kasbiy-sohaviy ehtiyoj tufayli yuzaga keladi. Biror bir tilni boshqa millatlar vakillari bilan yaqin qo'shnichilik munosabatlari yoki xorijiy mamlakatlarda muayyan muddat yashash imkoniyati mavjudligi tufayli o'zaro aloqa-aralashuv munosabatlari orqali o'rganish til tabiiy muhitda o'zlashtirish hisoblanadi. Chet tillarni maxsus o'qitish orqali, masalan, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim bosqichlarida o'rganish tilni o'qish/o'qitish orqali o'zlashtirish hisoblanadi. Bunda chet tilini shu fan mutaxassisi sifatida o'rganish bilan chet tilini kasbiy-sohaviy fanlarga bog'lab o'rganish farqli bo'lib, birinchisi filologik yo'nalishni, ikkinchisi nofilologik yo'nalishlarni yuzaga keltiradi. Filologik yo'nalishlarda, odatda, tarjimonlar, xorijiy tillar o'qituvchilari tayyorlanadi va bugungi kunda globallashuv, dunyo xalqlari integratsiyasining kuchayishi, ijtimoiy-iqtisodiy, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida aloqalarning tobora kengayib borayotgani tufayli ushbu yo'nalishlarning dolzarbligi va amaliy ahamiyati borgan sari ortib bormoqda va ko'plab tadqiqotlarning yuzaga kelishiga yo'l ochmoqda. Xususan, ikki tillilikda og'zaki bo'lmagan xatti-harakatlar va og'zaki bo'lmagan muloqot [1], ikki tillilikni kichik yoshdan rivojlantirishda individual xususiyatlar va bolalar til qobiliyatlarining roli [2], ikki tillilik va bikulturalizm o'rtasidagi munosabatlar [3], madaniyatlarning muloqotida ikki tilli bolalarning xulq-atvori [4], bir vaqtning o'zida ikki tilda o'qishni o'rganish, ikki tilda yozma nutqni rivojlantirish [5], spontan tarjima va tillararo ekvivalentlar, ikki tillilik tipologiyalarini ishlab chiqish va yangi turlarini aniqlash [6], ikki tillilikning jadal rivojlanishi masalalari [7] shular jumlasidandir. Bu o'rinda ikki tilda so'zlashuvchilarning psixologik va kognitiv rivojlanishi masalasi ham o'ta muhim bo'lib, keyingi yillarda ilmiy hamjamiyatning e'tibori bilingvlarning intellektual qobiliyatlari va ularning lingvopsixologik hamda kognitiv rivojlanish darajasini aniqlash va baholash masalasiga ham qaratilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'kidlash kerakki, ko'p tillilikni filologik yo'nalishdan ham ko'ra nofilologik yo'nalishlarda amaliy ahamiyatligi bugungi kunda isbot talab qilmaydigan haqiqatga aylandi va nofilologik OTMLarda sohaviy til fanlarining yuzaga kelishiga olib keldi. Bu esa aynan shu sohaviy til fanlarini o'qitadigan kasbiy-sohaviy va til bilimiga ega mutaxassisi yetishtirish uchun maxsus pedagoglarni tayyorlash masalasini bugungi kunning eng muhim va dolzarb muammosiga aylantirdi.

Bilingvizm jamiyat rivojlanishining muhim sosiolingvistik omili sifatida hozirgi vaqtda nafaqat ta'lim jarayonini tashkil etishda, balki u jamiyat hayotining siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarida ham faol rol o'ynamoqda. Shu bois bugungi kunda xalqaro (ingliz) tilni bilish meyoriga

qo'yiladigan talablar ham biron o'zgardi, amaliy islohatlar har qanday jamiyat shaxsining oldiga chet tillarini bilish va o'rganishdek muhim vazifalarni ham yuklamogda. Bu oilaviy ikki tillilik hodisasini yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Oilaviy ikki tillilik asosan ikki etnik jamoa vakillari bir aholi bo'lib yashaydigan xududlarda, ayniqsa, er va xotin ikki millatga mansub oilalarda ko'p yuzaga keladi. Bunday oila farzandlari bolaligidan tabiiy vaziyatda ham ota, ham ona mansub bo'lgan etnik jamoaning tilini o'zlashtirishga majburdirlar.

Tahlil va natijalar. Oilaviy ikki tillilik dunyoning barcha mamlakatlarida, aniqrog'i, qayerda ikki millat vakili yashayotgan bo'lsa, o'sha yerda, albatta, keng tarqalgan bo'ladi. Oilaviy ikki tillilik sharoitida o'sgan farzandlar kelajakda ko'p tillarni biluvchi poliglottlar bo'lib yetishib chiqadilar, chunki oilaning o'zidagi tabiiy shart-sharoit bunga katta imkoniyat yaratadi. Buni respublikamiz misolida ko'radigan bo'lsak, O'zbekistonning qaysi viloyat yoki tumanini olmag, ularning barchasida ikki tilli oila mavjud. Bu ikki tillilik o'sha hududning etnik tarkibiga ko'ra, har xil bo'lishi mumkin. Masalan, Samarqand shahrining mahalliy aholisi o'zbek va tojiklardan iborat. U yerda albatta ikki tillilik hukumron. Bunday oilalarda, shak-shubhasiz, tojik va o'zbek yoki o'zbek va tojik ikki tilliligi rivoj topgan. Buxoroning ko'pgina tumanlarida turkman va tojik millatiga mansub aholi yashaydi. U yerda turkman-tojik yoxud tojik-turkman yoki o'zbek oilalarining bo'lishi aniq. Toshkent viloyatining ko'pgina tumanlarida ham bunday yashash tarzini kuzatish mumkin. Shunga muvofiq, bu tumanlarda tojik va turkman, turkman va o'zbek, o'zbek va tojik, o'zbek va qozoq ikki tilliligi tashkil topgan. Bular oilalarning ham, ikki tillilikning ham o'z tarixiga ega bo'lgan «mahalliy» shakllariga kiradi.

Ikki tilli oilalarning «mahalliy bo'lmagan» ko'rinishlari ham mavjud, ular ham mamlakatimizning ko'pgina shaharlarida uchraydi. Ayniqsa, markaziy shaharlarda oila tojik va o'zbek, tojik va rus, tojik va tatar, tojik va ukrain ko'rinishidagi har xil etnik jamoalarga mansub shaxslardan tarkib topgan oilalar bo'lishi mumkin. Shu asosda ikki tillilikning ham «mahalliy bo'lmagan» har xil shakllari mavjud bo'ladi. Bu turdagi va yuqorida ko'rib chiqilgan norasmiy ikki tillilikni ilm-fanga bog'liq bilingvizmdan farqlashimiz va ikki etnik oila asosiga qurilgan ikki tillilikni tabiiy ravishda vujudga kelgan ikki tillilik, deb atashimiz to'g'ri bo'ladi.

Har xil til jamoasi vakillaridan tarkib topgan oilada shakllanuvchi tabiiy ikki tillilik bilan bir qatorda, situativ ikki tillilik deb nomlanuvchi shakli ham mavjud [8]. Situativ ikki tillilik dunyoning ko'p millatli barcha mamlakatlarida uchraydi. Har bir mamlakatning asosiy aholisi tili davlat maqomi bilan imtiyozga ega bo'ladi. Masalan, O'zbekistonda mamlakatning asosiy aholisi o'zbeklardir. Bundan tashqari, tojik, qirg'iz, rus va boshqa millatlar ham bu mamlakatda yashaydi. O'zbek bo'lmagan aholining o'zbek tilini bilishi shu mamlakatda amal qiluvchi situativ ikki tillilikka kiradi.

Xulosa va takliflar. Jamiyatda ikki tillilik va ko'p tillilik fenomenlari insonning psixolingvistik, sosiolingvistik va kognitiv rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumotlar va til bilan aloqa qilish qobiliyatlari insonlar kasbiy va ijtimoiy hayotidagi roliga ko'p jihatdan ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistondagi ikki tilli oilalar va turli tillar orasidagi muloqot mahalliy va «mahalliy bo'lmagan» ikki tillilik shakllarining ko'payishi, jamiyatning ko'p tilli muhitdagi rivojlanishini ko'rsatadi. Ayniqsa, globallashuv va madaniyatlarning aloqa tufayli ko'p tillilikning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Bilingvizm va ko'p tillikni tadqiq qilishni yanada chuqurlashtirish borasida psixolingvistika, sosiolingvistik, neyrolingvistika kabi yo'nalishlarda tadqiqotlarni kengaytirish va mavjud tadqiqotlarni yangilash talab etiladi. Kichik yoshdan tillarni o'rganishni rag'batlantirishda maktabgacha ta'limdan boshlab, bolalarga tillarni o'rganish imkoniyatlarini ko'paytirish, shuningdek, chet tillarni ta'limda samarali o'rganish usullarini ishlab chiqish lozim. Oilaviy ikki tillilik va uning rivojini qo'llab-quvvatlashda eng muhimi – oiladagi til muhiti va uning ta'sirini tahlil qilish va yoshlarni ko'p tilli muhitda tarbiyalashni rag'batlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tillar o'rtasidagi o'zaro ta'siri va ularning kognitiv rivojlanishiga ta'sirini chuqurroq tadqiq qilish bu borada yaxshi natijalarga olib keladi. Mamlakatdagi barcha

tillarning qo'llanilishiga munosib muhit yaratish, turli tillarni o'rganish va insonlarning ish faoliyatida qo'llash uchun shart-

sharoitlar yaratish, bu orqali jamiyatda tillaro barqarorlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Alexandrova, N.Sh. 2023. "The Disappearance of Languages and Natural Bilingualism". *Polylinguality and Transcultural Practices*, 20 (3), 436–455. <https://doi.org/10.22363/2312-8127-2023-20-3-436-455>. Friederici, A. D. (2014). The brain's language: From sounds to meaning. In *the Cognitive Neurosciences* (5th ed., pp. 1075-1096). Cambridge, MA: MIT Press. Klein, R. M. (2015). Is there a benefit of bilingualism for executive functioning? *Bilingualism and Cognition*, 18(1), 29–31
2. Collier, V. P. (2000). Making the most of bilingualism: Strategies for teaching language and learning. *Bilingual Research Journal*, 24(1), 1-27.
3. Burkhardt Montanari, E. (2000). *Wie Kinder mehr-sprachig aufwachsen: Ein Ratgeber* [How children grow up multilingual: A guide]. (1st ed.). Brandes und Apsel.
4. Bialystok, E. (2017). *Bilingualism in development*. Cambridge University Press.
5. Протасова 2004 — Протасова Е. Ю. Психолингвистические и педагогические аспекты детского двуязычия: научное издание, предварительная публикация. М: Дошкольное детство, 2004. 72 с.
6. Чиршева, Г. Н. (2012). _Детский билингвизм. Одновременное усвоение двух языков_ [Child bilingualism. Simultaneous acquisition of two languages]. Moscow: Zlatooust.
7. Протасова, Е.Ю. Двуязычные дошкольные учреждения: организация работы / Е.Ю. Протасова// Дошкольное воспитание. - 2003. - № 3. - С. 17-21.
8. Qurbonov, A. (2020). _Социолнгвистика: Ўзбекистон контекстида._ [Sociolinguistics: In the context of Uzbekistan.] Tashkent: National University of Uzbekistan Press.